

O'ZBEK VA QORAQALPOQ Shoirlarida millat, tabiat, tarix motivlari**Toshpulatova Dilorom Bobanazarovna** – *filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*dtoshpulatova26@gmail.com**Niyatullayeva Xurshida Adamboyevna** – *magistrant**Toshkent gumanitar fanlar universiteti***МОТИВЫ НАЦИИ, ПРИРОДЫ И ИСТОРИИ В ТВОРЧЕСТВЕ****УЗБЕКСКИХ И КАРАКАЛПАКСКИХ ПОЭТОВ****Тошпулатова Дилором Бобаназаровна** – *доктор философии по филологическим наукам, доцент***Ниятуллаева Хуршида Адамбаевна** – *магистрант**Ташкентский университет гуманитарных наук***NATIONAL, NATURAL, AND HISTORICAL MOTIFS IN THE WORKS****OF UZBEK AND KARAKALPAK POETS****Toshpulatova Dilorom Bobanazarovna** – *Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor***Niyatullayeva Xurshida Adamboyevna** – *master's student**Tashkent State University*

Tayanch so'zlar: millat, tarix, epik an'ana, bahshichilik, qoraqalpoq she'riyati, tarjima, leksik tafovutlar.

Rezyume. Ushbu maqolada o'zbek va qoraqalpoq adabiyotida millat, tarix, tabiat va qahramonlik motivlarining badiiy talqini tahlil qilinadi. Xususan, dostonchilik an'analari, baxshichilik maktabi, XX asrning 60-80-yillaridagi epik merosning saqlanishi va yangi voqelikning badiiy ifodasi bilan bog'liq tadqiqotlar ko'rib chiqiladi. Tarjima jarayonida yaqin turkiy tillar o'rtasidagi leksik-semantik farqlar, "soxta ekvivalentlar" hodisasi, fonetik va uslubiy nomuvofiqliklar misolida tarjima muammolari yoritiladi. Qoraqalpoq shoiri Ibroyim Yusupov ijodi alohida tahlil qilinib, uning she'riyatida tarixi xotira, milliy o'zlik, qahramonlik va oila motivlarining o'zaro bog'liqligi statik va badiiy dalillar asosida asoslanadi. Chiziqli diagramma natijalari esa shoir ijodida millat motivining yetakchi o'rin egallashini ko'rsatadi.

Ключевые слова: нация, история, эпические традиции, бахши, каракалпакская поэзия, перевод, лексические различия.

Резюме. В статье рассматриваются художественные интерпретации мотивов нации, истории, природы и героизма в узбекской и каракалпакской поэзии. Особое внимание уделяется исследованиям, посвящённым доскональному анализу эпических традиций, бахшичества, сохранения эпического наследия в 1960-1980-е годы и художественного отражения новой действительности. Подробно освещаются проблемы перевода между родственными тюркскими языками, включая лексико-семантические расхождения, феномен «ложных эквивалентов», фонетические и стилистические несоответствия. Творчество каракалпакского поэта Ибрагима Юсупова анализируется отдельно; выявляется системная связь мотивов исторической памяти, национальной идентичности, героизма и семьи. Результаты линейной диаграммы подтверждают доминирующую роль национального мотива в его поэзии.

Key words: nation, history, epic tradition, bahshi art, Karakalpak poetry, translation, lexical differences.

Summary. This article examines the artistic representation of national, historical, natural, and heroic motifs in Uzbek and Karakalpak poetry. It analyzes previous research on epic traditions, the bahshi performance school, the preservation of epic heritage in the 1960s–1980s, and the poetic interpretation of new socio-cultural realities. The study also highlights translation challenges between closely related Turkic languages, focusing on lexical-semantic discrepancies, "false equivalents," phonetic differences, and stylistic inconsistencies. Special attention is given to the works of Karakalpak poet Ibragim Yusupov, demonstrating the interconnectedness of historical memory, national identity, heroism, and family motifs within his poetic system. Statistical data from a line graph confirms that national motifs occupy the dominant position in the poet's creative output.

Kirish. O'zbek va qoraqalpoq adabiyoti turkiy xalqlar ma'naviy merosining ajralmas qismi bo'lib, unda millat, tabiat va tarix motivlari alohida badiiy-estetik tizimni tashkil etadi. Har ikki adabiyotda xalqning tarixiy xotirasi, milliy o'zlikni anglash jarayoni, vatan va tabiatga munosabat kabi ruhiy-madaniy tushunchalar poetik talqin orqali o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, dostonchilik, baxshichilik maktabi va epik tafakkurning o'zaro uyg'unligi o'zbek va qoraqalpoq xalqining ijtimoiy-ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadi.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida epik merosni o'rganish, baxshilarning badiiy tafakkuri va ijrochilik mahoratini tahlil qilish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, turli vohalardagi epik an'analarning o'zbek umumerosi kontekstidagi o'ri, shuningdek, zamonaviy adabiyotda milliy motivlarning

poetik talqini yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Bu esa epik tafakkur evolyutsiyasining hozirgi bosqichini, xalq ongidagi tarixiy va milliy qadriyatlarining badiiy-estetik aksini chuqur tahlil qilish zaruratini ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalarining poetik asoslari, yaqin turkiy tillar o'rtasidagi tarjima jarayonida yuzaga keladigan leksik-semantik farqlar, "soxta ekvivalentlar" hodisasi va uslubiy nomuvofiqliklar masalalari ham tadqiqotning dolzarb jihatlaridan biridir. Chunki tarjima jarayonidagi bunday tafovutlar millat, tarix va tabiat motivlarining badiiy qamrovini to'laqonli aks ettirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maqolada ushbu masalalar o'zbek va qoraqalpoq she'riyati misolida ko'rib chiqilib, xususan, qoraqalpoq adabiyotining yirik namoyandasi Ibroyim Yusupov ijodidagi milliy, tarixiy va qahramonlik motivlarining badiiy talqiniga alohida e'tibor

qaratiladi. Shoir she'riyatida milliy o'zlik, xalq taqdiri, tarixiy xotira va ma'naviy merosning poetik ifodasi statistik va badiiy dalillar asosida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Qiyosiy-tipologik metod asosida o'zbek va qoraqalpoq adabiyotida millat, tarixiy xotira va qahramonlik motivlarining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashda qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi. Xususan, dostonchilik an'analari, baxshichilik maktabi va poetik tafakkurdagi umumiy turkiy badiiy unsurlar bir-biriga qiyoslangan holda o'rganildi. Struktur-semantik tahlil orqali she'riy matnlardagi badiiy birliklar – obrazlar tizimi, metaforik qatlam, ramzlar, milliy kodlar va semantik maydonlarning strukturalari tahlil qilindi. Shu asosda Ibroyim Yusupov she'riyatidagi millat, tarix va qahramonlik motivlarining semantik tuzilishi aniqlashtirildi. Tarixiy-adabiy yondashuvda o'zbek va qoraqalpoq adabiyotida epik tafakkur evolyutsiyasi, baxshichilik an'analarning XIX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi o'zgarishi, tarixiy voqelikning badiiy aks ettirilishi tarixiy kontekst doirasida o'rganildi. Bundan tashqari, poetika tahlili bilan she'riy matnlarning ritmik uslubi, alliteratsiya, qofiya, intonatsiya va ohangdorlik jihatlarini poetik nuqtayi nazardan o'rganildi. Ayniqsa, yaqin turkiy tillar o'rtasidagi tarjima jarayonida poetik strukturaning buzilishi yoki o'zgarishi alohida tahlil qilindi. Tarjima nazariyasi asosida lingvopoetik tahlilda yaqin turkiy tillardagi leksik-semantik farqlar, “soxta ekvivalentlar”, fonetik nomuvofiqliklar, uslubning saqlanish darajasi tarjima nazariyasi asosida o'rganildi. K.Chukovskiy va boshqa tarjima nazariyotchilarining nazariy qarashlari tahlilning metodik bazasini tashkil qildi. Shu asosda statistik tahlil – Ibroyim Yusupov ijodidagi asosiy motivlarning foiz ko'rsatkichlari chiziqli diagramma asosida statistik jihatdan baholandi. Natijalar motivlarning ijoddagi o'rni va ustuvorlik darajasini aniq ko'rsatish imkonini berdi. Kontent-tahlil usuli orqali dostonlar, lirik she'rlar, ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar va monografiyalar mazmuni tizimli ravishda tahlil qilinib, mavzularning takrorlanish chastotasi, mazmuniy maydoni va badiiy funksiyasi aniqlashtirildi. Ushbu metodlar majmuasi o'zbek va qoraqalpoq adabiyotidagi millat, tarix, tabiat va qahramonlik motivlarining o'zaro bog'liq poetik-struktural xususiyatlarini chuqur yoritish, shuningdek, tarjima jarayonida milliy badiiy tafakkurning saqlanish muammolarini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

1985-yilda folklorshunos A.Qo'qorov tomonidan nashr etilgan “Yangi dostonlar” [4] risolasi Qashqadaryo va Surxondaryo vohalaridagi doston ijodiyoti va ijrochiligi masalalari “Kelino” turkumi dostonlari misolida keng tahlil qilingan. Xususan, muallif yangi dostonlarning mavzusi, tarqalish doirasi hamda bahshilarning ijodiy mahorati kabi jihatlarni batafsil yoritgan. Shu bilan birga, xalq bahshilarining ijodiy faoliyatida epik xotira va epik bilim elementlarining saqlanish darajasi hamda ularning yangi voqelikni badiiy ifoda etishiga oid nazariy masalalar yetarli darajada o'rganilmagan.

Mualliflar M.Muqimov va A.Ergashov hamkorligida chop etilgan “Alpomishnoma” nomli ikki jildlik tadqiqotda [2] Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi bahshilar repertuaridagi xalq dostonlarini talqin qilish xususiyatlari, shuningdek “Beva Barçın” turkumiga mansub yasama dostonlar masalasi tahlil qilingan.

2004-yilda N.Ochilov tomonidan himoyalangan nomzodlik dissertatsiyasida [3] esa Janubiy O'zbekiston vohasida XX asrning 60-80-yillarida epik an'analari saqlanishining holati (Qodir baxshi Rahimov ijodi va repertuari misolida) yoritilgan. Ushbu ishda iste'dodli xalq baxshisi Qodir Rahim o'g'lining ijodida an'anaviy va yangi dostonlar muammosi batafsil tahlil qilingan. Shunga qaramay, hozirgi davrda xalq bahshilarining ijodiy faoliyatida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar jarayoni, ijodiy yangilanishlar va ularning mavhum nazariy masalalari yetarlicha ilmiy asosda o'rganilmagan. Aniqlanishicha, XIX asr oxiri va XXI asr boshlarida dostonchilik an'analarning saqlanishi va rivojlanishiga bag'ishlangan tadqiqotlar kam bo'lib, unda ham turli vohalar bo'yicha (masalan, Qashqadaryo-Surxondaryo mintaqasida) epik ijodning umumiy o'zbek eposi kontekstidagi o'rni yetarli darajada yoritilmagan.

Mazkur ilmiy bo'limda ko'tarilgan muammolar ijodiy merosni saqlash va tadqiq etish jarayonlarida an'anaviy epik an'analarning bugungi psixologik, madaniy va pedagogik ahamiyatini chuqur anglash zaruratini ko'rsatadi. Keltirilgan she'r namunasi alliteratsion ohangdorlikka ega bo'lgan she'riy matnni tarjima qilganda yuzaga keladigan murakkabliklarni yaqqol namoyish etadi. Asl nusxadagi ohangdorlikni boshqa tilga ko'chirayotganda barcha joylarda bir xil darajada alliteratsiyani saqlab qolish imkonini mavjud emas. Bu, ayniqsa, qofiya badiiy strukturaning ajralmas qismi bo'lgan she'riyatga nisbatan tarjima jarayonida seziladi. Zero, qofiya va ohangdorlik mazmunni ifodalashda markaziy o'rin tutadi, shuning uchun she'riy tarjima qilingan matnning qofiyasi iloji boricha to'liq va mukammal bo'lishi talab etiladi. Tarjima jarayonida ayrim so'zlar til qoidalarini yoki fonetik imkoniyatlar tufayli “nomuvofiq” bo'lishi mumkin, bu esa she'riy tuzilish va badiiy butunlik o'rtasida tafovutlar yuzaga kelishiga olib keladi. Biroq, badiiy tarjimada eng salbiy natija beruvchi holat bu so'zlarning bevosita tarjima qilinmasligi emas, balki poetik nofosatning yo'qolishi yoki sezilarli darajada o'zgartirilishidir. Bu holat asarning uslubiy xususiyatini va badiiy qiymatini tubdan o'zgartirishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, tarjima nazariyotchisi K.Chukovskiyning [7] ta'kidlashicha, badiiy tarjimada ayrim leksik nomuvofiqliklar matnning aqliy ravshanligini qisman buzsa ham, bu masala mazmunan uchinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib, eng muhim omil asl nusxaning uslubiy mohiyatini saqlab qolish ekanligi muhimdir. Asl nusxadagi uslubiy belgi va poetik individualitet tarjimada saqlanishi she'riyatning badiiy ruhini tiklashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Muhokama. Turk tillari sharoitida “jo'ra” so'zi turkman tilida “do'stona muomala” ma'nosini berishiga qaramay, o'zbek tilida u birinchi navbatda erkak shaxsni anglatadi va undan “do'st-biyrodar”, “ishqiy do'stlar”, “juftliklar” kabi yanada keng ma'nolar ham hosil bo'lishi mumkin. Qirg'iz tilida esa bu so'z yana boshqa ma'nolarni, masalan, “bo'za”, “bo'zachur”, “oldindan belgilangan voqea alomati”, “kimgadir yoki nimagadir belgilangan narsa” kabi semantik qatlamlarni ham qamrab oladi. Boshqa misol sifatida “olchoq” leksemasini olsak, bu so'z qadimiy turkiy tillarda dastlab “muloyimlik” tushunchasini ifodalagan bo'lsa, zamonaviy o'zbek tilida u “xushxulqli, ochiqko'ngil” kabi mazmunlarni bergan bo'lsa, turkmanlarda esa bu ijobiy sifatli shaxsni bildiradi.

Shuningdek, “olchoq” soʻzi turk tillarida turlicha variantlarda (“pastki qatlam”, “kamtarlik”, “xushfeʼl”) tarzida ishlatiladi. Bunday yaqin tillar oʻrtasidagi leksik tafovutlar tarjima jarayonida “soxta ekvivalentlar” – yaʼni mazmunan toʻgʻri boʻlmaydigan, kontekstga mos kelmaydigan tarjima variantlarini yuzaga keltiradi. Masalan, “oʻlja” soʻzi baʼzi tillarda “kutilmagan rizq”, “foйда”, “daromad” kabi maʼnolarni bildirsa, boshqa qabilalarda u “asir”, “tushov” yoki hatto oila aʼzolarini ifodalovchi leksema boʻlishi ham mumkin. Bu holatlar tarjima nazariyasida tarjimonning tayyorgarligi, tilni chuqur bilmasligi va leksik-kultural farqlar hisobga olinmaganda badiiy tarjima sifatining sezilarli darajada pasayishiga olib kelishini koʻrsatadi. Masalan, qirgʻiz shoiri Aʼli Tuyqamboev [5] sheʼrlaridan olingan tarjimalarda ham aniq koʻrinib turibdiki, tarjimon “ayron”ni notoʻgʻri “qatiq” deb tarjima qilgan. Bu esa asl badiiy obrazni yoʻqotib, butunlay boshqacha semantik qatlama olib chiqadi. Shuningdek, “besh iqlim” kabi iboralar aslida “besh asr” maʼnosida boʻlishi lozim boʻlib, u ham tarjimada notoʻgʻri ifodalanmoqda. Shu tarzda, tarjima jarayonida til oʻrtasidagi leksik-semantik, fonetik va badiiy farqlar tarjimon tomonidan chuqur tahlil qilinmaganda, tarjima matnning badiiy mohiyati kamayadi yoki yoʻqoladi.

Ibroyim Yusupov ijodini tahlilga olsak:

Tarix mavzusidagi sheʼrlari (tarixiy xotira, oʻtmish, xalq taqdiri):

- “Ajiniyoz”
- “Berdaq ruhi bilan suhbat”
- “Oʻtmish sadosi”
- “Tarix oldida”
- “Xalq yoʻli”

Oila mavzusidagi sheʼrlari (ota-ona, avlod, maʼnaviy rishta):

- “Ona haqida qoʻshiq”
- “Ota uyim”
- “Farzand soʻzi”
- “Avlodlar rishtasi”

Qahramonlik mavzusidagi sheʼrlari (jasorat, fidoyilik, kurash):

- “El uchun”
- “Botir ruhi”
- “Jasorat”
- “Mardlar yoʻli”
- “Qahramonlik qoʻshigʻi”

Millat mavzusidagi sheʼrlari (milliy oʻzlik, xalq, vatan):

- “Qoraqalpoqman”
- “Elim”
- “Millat taqdiri”
- “Vatan ovozi”
- “Xalqim bor”

Ibroyim Yusupov sheʼriyatida millat mavzusi yetakchi oʻrinni egallab, shoir ijodida milliy oʻzlik, xalq taqdiri va milliy ong masalalari ustuvor ekanini koʻrsatadi. Qahramonlik motivlari, tarix va oila mavzulariham

shoirning tarixiy xotira, jasorat va ijtimoiy masʼuliyat gʻoyalari alohida eʼtibor qaratganini koʻrishimiz mumkin boʻladi.

Xulosa. Ibroyim Yusupov [6] qoraqalpoq adabiyotida milliy poetik tafakkurni yuksak badiiy darajada ifodalagan shoirlardan biri hisoblanadi. Uning sheʼriyatida tarixiy xotira, milliy oʻzlik, qahramonlik va oila motivlari oʻzaro uzviy bogʻlangan holda namoyon boʻlib, qoraqalpoq xalqining ijtimoiy-maʼnaviy hayoti, tarixiy taqdiri va estetik qarashlarini badiiy jihatdan mujassamlashtiradi. Shoir ijodida tarix mavzusi alohida oʻrin egallaydi. “Ajiniyoz”, “Berdaq ruhi bilan suhbat”, “Tarix oldida” kabi sheʼrlarida tarix faqat oʻtmishni eslash vositasi sifatida emas, balki bugungi avlodni masʼuliyatga chorlovchi maʼnaviy mezon sifatida talqin etiladi. Ibroyim Yusupov tarixni xalq xotirasi bilan bogʻlab, uni milliy ongni shakllantiruvchi kuch sifatida tasvirlaydi. Ushbu sheʼrlarda tarixiy shaxslar obrazi ramziy maʼnoga ega boʻlib, ular orqali shoir xalqning ruhiy qudrati va maʼnaviy merosini ulugʻlaydi. Millat mavzusi Ibroyim Yusupov sheʼriyatining yetakchi gʻoyaviy asoslaridan biridir. “Qoraqalpoqman”, “Elim”, “Xalqim bor” kabi sheʼrlarida shoir milliy oʻzlikni anglash, xalq taqdiri va milliy gʻurur masalalarini markazga qoʻyadi. Bu asarlarda millat tushunchasi faqat etnik birlik sifatida emas, balki tarix, madaniyat, til va umumiy maʼnaviy qadriyatlar majmui sifatida ifodalanadi. Shoir millatni tirik organizmga qiyoslab, uning kelajagi xalqning oʻz oʻtmishiga va qadriyatlariga munosabatiga bogʻliq ekanini badiiy vositalar orqali ochib beradi. Qahramonlik motivlari Ibroyim Yusupov ijodida milliy va tarixiy gʻoyalar bilan chambarchas bogʻliq holda rivojlanadi. “El uchun”, “Jasorat”, “Mardlar yoʻli” kabi sheʼrlarida qahramonlik faqat jangovar jasorat bilan cheklanmaydi, balki maʼnaviy matonat, vijdoniy poklik va xalq oldidagi masʼuliyat sifatida talqin etiladi. Shoir qahramon obrazini xalq manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qoʻyadigan inson timsolida yaratadi. Bu holat qoraqalpoq sheʼriyatiga xos epik tafakkur va xalqona ideal bilan uygʻunlashadi. Oila mavzusi shoir ijodida nisbatan kamroq uchrasa-da, mazmunan chuqur va taʼsirchan tarzda yoritilgan. «Ona haqida qoʻshiq», «Ota uyim», «Farzand soʻzi» kabi sheʼrlarida oila milliy tarbiya va maʼnaviy uzluksizlikning asosiy tayanchi sifatida tasvirlanadi. Ibroyim Yusupov oilani xalq va millat tushunchasining boshlangʻich nuqtasi sifatida koʻrib, undagi mehr, masʼuliyat va hurmat tuygʻularini badiiy umumlashmalar orqali ifodalaydi. Bu sheʼrlarda shaxsiy lirizm ijtimoiy mazmun bilan uygʻunlashib, oila mavzusini milliy qadriyat darajasiga koʻtaradi. Umuman olganda, Ibroyim Yusupov sheʼriyatida tarix, millat, qahramonlik va oila motivlari oʻzaro bogʻliq holda yagona badiiy-falsafiy tizimni tashkil etadi. Shoir bu mavzular orqali qoraqalpoq xalqining tarixiy xotirasi, milliy ong va maʼnaviy qadriyatlarini poetik jihatdan yuksak darajada ifodalaydi. Ushbu jihatlar Ibroyim Yusupov ijodini qoraqalpoq milliy poetik anʼanalarining muhim va uzviy davomchisi sifatida baholash imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Alambergenov E.K. Qoraqalpoq xalqining “Shahriyor” dostonidagi taʼlim-tarbiyaga doir qarashlar. f.f.f.d.(PhD) dis. aftoref. – Nukus: 2022.
2. Muqimov M., Ergashov A. Alpomishnoma (2 jild). – Toshkent: «Fan» 1990.
3. Ochilov N. Janubiy Oʻzbekiston dostonchiligida epik anʼanalar saqlanishi (Qodir bahshi Rahimov ijodi misolida) (Nomzodlik dissertatsiyasi). Toshkent davlat universiteti. –Toshkent, 2004.
4. Qoʻqorov A. Yangi dostonlar. – Toshkent: «Fan», 1985.
5. Tuyqamboev A. Sheʼrlar va dostonlar. – Frunze: «Kyrgyzstan Publishing», 1980.
6. Yusupov I. Taʼnlamali shigʻarmalari. – Nókis: «Bilim», 2018.
7. Чуковский К. Искусство перевода. – Москва: «Искусство», 1964.